

XALQ MAQOLLARINING TARBIYAVIY VA MADANIY AHAMIYATI

*Pardayeva Shaxrizoda Alisher qizi**Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi*Shaxrizada2007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining nodir namunalaridan bo‘lgan maqollarning tarbiyaviy va madaniy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xalq maqollari orqali avlodlarga axloqiy mezonlarni singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish, mehnatsevarlik, halollik kabi qadriyatlarimizni targ‘ib etishning samarali usullari yoritiladi. Shuningdek, xalq maqollarining milliy madaniyatini saqlash, til boyligini rivojlantirish va tarixiy meroslarimizni avlodlardan avlodga yetkazishdagi roli ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, tarbiya, madaniyat, axloqiy qadriyatlar, milliy meros, hayotiy tajriba, axloqiy tarbiya, donolik, milliy an‘analari, tarbiyaviy ahamiyat, madaniy meros.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the educational and cultural aspects of folk proverbs, a unique form of oral folk art. It highlights effective methods of instilling moral standards, shaping human virtues such as diligence and honesty, and promoting our core values through folk proverbs. Additionally, the article examines the role of folk proverbs in preserving national culture, enriching language, and transmitting historical heritage from generation to generation based on a scientific-theoretical approach.

Keywords: folk proverbs, education, culture, moral values, national heritage, life experience, moral upbringing, wisdom, national traditions, educational significance, cultural heritage.

Аннотация: В данной статье научно анализируются воспитательные и культурные аспекты народных пословиц — уникального образца устного творчества народа. Через народные пословицы рассматриваются эффективные методы передачи моральных норм, формирования человеческих качеств, таких как трудолюбие и честность, а также пропаганды наших ценностей. Кроме того, рассматривается роль народных пословиц в сохранении национальной культуры, развитии языкового богатства и передаче исторического наследия из поколения в поколение на основе научно-теоретического подхода.

Ключевые слова: народные пословицы, воспитание, культура, нравственные ценности, национальное наследие, жизненный опыт, нравственное воспитание, мудрость, национальные традиции, воспитательное значение, культурное наследие.

KIRISH: Xalq og‘zaki ijodi, xususan, maqollar, milliy tafakkur, ma‘naviy meros va ijtimoiy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular orqali xalqning hayotga, tarbiyaga, mehnatga, oila va jamiyatga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Maqollar nafaqat og‘zaki nutq madaniyatining namunasi, balki yosh avlodni tarbiyalashda, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, xalq maqollarining tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganish, ularning ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlash, til va tafakkur rivojida o‘rnini tahlil qilish ushbu

maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-osib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.¹ Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki har bir davlatning kelajagi — yoshlarimiz qo‘lidadir. Farzandlarimiz tarbiyasi, qanday dunyoqarashga ega bo‘lishiga qarab ertangi kelajak avlodimizning jamiyatga qay darajada xizmat qilishi, biz kattalarning yoshlar haqida jiddiy o‘ylashimizni va ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz kerak ekanligini anglatadi. Shuningdek, maqollar yoshlarimizning o‘z fikrlarini erkin ifodalishiga yordam beradi.

Maqol “arabcha” so‘zdan olingan bo‘lib, maqola, kichik asar, so‘z, nutq degan ma’nolarni anglatadi. Maqollar hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham tugal ma’noli gapdir. Maqollarda avlodajdodlarning jamiyat va tabiatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari ijobiy va salbiy fazilatlar haqida mulohazalar aks ettiriladi.² Darhaqiqat, maqollar turli mavzularda insonlarga taqdim qilinadi. Masalan: Donolik, mehnatsevarlik, do‘stlik, insoniylik, haqqoniylik, yaxshilik kabi mavzular orqali hayotga maqollarning o‘rni beqiyos ekanligini singdira olamiz. Har bir maqolni tahlil qilganimizda har birida turli ma‘no bor. Yuqoridagi fikrimizni asoslash maqsadida xalq maqollaridan misollar keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki ularning har biri bizning hayotimizda muhim ahamiyatga egadir :

Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga,

Yomon bilan yursang qolarsan uyatga.

Bu maqol orqali insonning yaxshi do‘st tanlashi muhim ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutilmoqda. Hayotimizda ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan insonlar bilan birga bo‘lish, yaxshi odatlarni qabul qilish, yuksak maqsad sari intilish demakdir. Shu yo‘lda davom etaversak albatta, o‘z orzu-istaklarimizga erisha olishimiz. Aksincha, yomon inson bilan yurish, insonlar oldida obro-e’tiborining pasayishiga

sababchi bo‘ladi.

Yetti o‘lchab, bir kes.

Bu maqol to‘g‘risida so‘z yuritadigan bo‘lsak, hayotimiz davomida qilgan har bitta qarorimiz muhim ahamiyatga ega. Muhim masalalarni shoshmasdan, har bir jihatni ko‘rib chiqqan holda qaror qabul qilishimiz kerakligi o‘rgatadi. Agarda biz mana shunday holatlarda shoshib qaror qabul qilsak, umrimizni oxirgi daqiqasigacha afsus chekishimizga to‘g‘ri keladi. Mana shu maqol menga juda ham yoqadi va men bu maqolni o‘zimga shior qilib olganman desam yanglishmagan bo‘laman. Maqollardan biz ko‘p narsalar o‘gansak bo‘ladi. Bejizga maqollarni “Otalar so‘zi” deyishmaydi.

1. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I.Karimov. –T.: “Ma’naviyat”,2016.-2-b.

Maqollarda vatanparvarlik, ota-onaga bo'lgan muhabbat, tinchlik, mehr-oqibat, oila muqaddasligi, pand-nasihat, mehnatkashlik kabi xislatlar ulug'lanadi. Rus maqollarining mashhur lug'atini tuzuvchi V.Dal maqolga quyidagi ta'rifni beradi: "Maqol qisqa matal. Bu to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan va xalq tangalari ostida muomalaga chiqarilgan hukm, ta'limotdir. Har qanday masal singari, to'liq maqol ham ikki qismdan iborat: rasmdan, umumiy hukmdan va qo'llashdan, talqindan, o'rgatishdan, lekin ko'pincha ikkinchi qism tashlab qo'yilib, tinglovchining aniqligiga qoldiriladi ... " 3

Maqollarda xalqning ichki kechinmalari aks etgan, xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiymaishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalar, hikmatli so'zlar aks ettiriladi. Maqollarning atalishi tillarda har hil bo'lsada, har birining ma'nosi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovisa, arablarda naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi.

Filologiya fanlari doktori B. M. Jo'rayeva o'z ilmiy tadqiqotlarida o'zbek xalq maqollarini intralingvistik birliklar asosida 6 ta guruhga ajratgan. Ularning birinchisi - iboralar asosida shakllangan maqollar, masalan, "sanamay sakkiz demaslik" - "sanamay sakkiz dema". Ikkinchisi - folklor janrlari asosida shakllangan maqollar, uchinchisi - e'tiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar, to'rtinchisi - xalq umidlari asosida shakllangan maqollar, beshinchisi-xalq o'yinlari asosida shakllangan maqollar, va nihoyat, oltinchisi-hadislari asosida shakllangan maqollar. 4Yuqorida keltirilgan guruhlar maqollar shakllanishining mazmuniga va mohiyatiga asoslanib ajratilgan.

Maqolning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fikr aniq: Maqol o'zida aniq va ravshan fikrni mujassamlashtiradi, har bir maqolning mazmuni qisqa va tushunarli bo'ladi.
2. Xulosa tugallangan: Maqol, odatda, biror voqeani yoki holatni umumlashtirgan holda, yakuniy xulosa chiqaradi. Fikrni tugatish, o'rganish uchun oson bo'ladigan tarzda taqdim etiladi.
3. Ifoda lo'nda: Maqollar qisqa va lo'nda bo'lib, murakkab fikrlarni oddiy va oson tushunarli tarzda ifodalaydi. Bu ularning samarali ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA

Ushbu maqolada xalq maqollarini xalqimizning asrlar davomida to'plagan tajribasi, donishmandligi va hayotga bo'lgan qarashlarining timsoli sifatida qoraladi. Maqollar tarbiyaviy jihatdan beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodning axloqiy, ma'naviy va madaniy kamolotida muhim rol o'ynaydi. Maqollar orqali bolalarda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, yaxshilik, ota-onaga va oilaga hurmat, vatanga muhabbat kabi fazilatlari shakllantiriladi. Shuningdek, maqollarni o'rganish nafaqat nutqni shakllantirishga balki, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam bera oladi.

3 Dal V.I. Rus xalqining maqollari. - M.: Astrel, AST, 2000. - P.9

4 Jo'rayeva, B. M. (2004). O'zbek xalq maqollari va ularning tahlili. Toshkent: Fan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. I.Karimov. –T.: “Ma'naviyat”,2016.-2-b
2. Mirzayev. T. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2012
3. Dal V.I. Rus xalqining maqollari. - M.: Astrel, AST, 2000. - P.9
4. Eshonkulova G.Y. Maqollar–ma'naviyat ko'zgusi.- <https://doi.org/10.5281/zenodo.6339661>
5. Jo'rayeva, B. M. (2004). O'zbek xalq maqollari va ularning tahlili. Toshkent: Fan
6. Jozilova M.M. Maqollar orqali milliy ma'naviyatni shakllantirish: metodik yondashuvlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15286981>